

DAVLATLARNING TASHQI SAVDOSINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Abduraxmonova Saida Abdusattor qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Xalqaro iqtisodiyot va menejment” yo‘nalishi magistri

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli texnologiya, raqamli iqtisodiyot, savdo sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish, tashqi savdoda raqamlashtirish, buyumlar internet (Internet of Things), tashqi savdo dinamikasi ko‘rsatkichlari haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, savdo sohasida raqamli texnologiya, raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, buyumlar internet (Internet of Things), tashqi savdo dinamikasi.

АННОТАЦИЯ

Цифровые технологии, цифровая экономика, использование цифровых технологий в сфере торговли, цифровизация в торговле, Интернет вещей (IoT), показатели динамики внешней торговли.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровые технологии в торговле, цифровая экономика, цифровизация, Интернет вещей (IoT), динамики внешней торговли.

ABSTRACT

Digital technology, digital economy, the use of digital technology in the field of trade, digitization in trade, Internet of Things (IoT), indicators of foreign trade dynamics.

Keywords: digital technology, the use of digital technology in trade, digital economy, digitization, Internet of Things (IoT), the dynamics of foreign trade.

Hozirgi vaqtda yer yuzidagi har bir insonning hayotiga raqamli texnologiyalarning kirib kela boshlashi butun bir katta o‘zgarishga sababchi bo‘ldi desak xato bo‘lmaydi. Raqamli texnologiyalarning kirib kelishi o‘tgan asrning ikkinchi yarmiga borib taqaldi. Bugungi zamonda raqamli texnologiyalar axborot almashinuvi, xizmat ko‘rsatish, mahsulot, qo‘shimcha qiymat va bandlik manbai sifatida iqtisodiyotning asosiy omili sifatida baholanadi. Deyarli har bir yo‘nalishga axborot

jarayonlarining kirib borishi va rivojlanishi orqali biznesni yuritishning internet do'konlar, internet-banklar, to'lov tizimlari kabi turlari bosqichma-bosqich rivojlana boshladi. Bu esa iqtisodiyotning raqamli iqtisodiyot tushunchasiga o'tishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son qaroriga muvofiq "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" va "Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi" davlat muassalari bir necha funksiyalarini ishlab chiqdi¹.

Ular quyidagilardan iborat hisoblanadi:

- Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini amalga oshirishda yagona texnologik yondashuvni ta'minlash;

- Davlat organlari va tashkilotlarida raqamli rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- Ekspertlar hamjamiyati bilan hamkorlikda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasida yangi yo'nalishlar va zamonaviy texnologiyalarni chuqur o'rganish orqali ularni davlat organlari va tashkilotlarida keng joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish kabi funksiyalarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy davlatning rivojlanishi iqtisodiy rivojlanishning doimiy o'zgarishi, raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va zamonaviylashtirish bilan tavsiflanadi.

Hozirgi vaqtda yangi texnologik tuzilmaning rivojlanishi bilan raqamli savdo asta-sekin "an'anaviy" savdoni siqib chiqara boshlamoqda. Natijada, uning raqamli shakllarini ifodalovchi maxsus turdagi "mahsulot" paydo bo'ladi. Bundan tashqari, tovarlar va xizmatlar o'rtasidagi chegaralar juda faol ravishda yo'q qilinmoqda, ularning iqtisodiyotdagi ulushi ortib bormoqda. Ushbu tendensiya zamonaviy tovarlarning yangi sifatlarga ega bo'lishi bilan bog'liq, ya'ni, ular savdoning asosiy obyektiga aylangan majburiy xizmatlar to'plami bilan savdo qiladi. Raqamli savdoning rivojlanishi iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasidagi vositachilar sonini kamaytirishga imkon beradi, bu esa yaratilish zanjirlarining o'zgarishiga olib keladi. Statistika ko'rsatkichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, yalpi hisobda xizmatlar savdosi jami jahon savdosining chorak qismini, qo'shilgan qiymat bo'yicha esa bu ko'rsatkich qariyb 50% ni tashkil qiladi².

Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, joriy etish va tarqatish xalqaro savdoning rivojlanishi "Raqamlashtirish" nuqtai nazaridan jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichiga aylandi. Chunki global iqtisodiyot bo'ylab raqamli tranzaksiyalar va


¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son

² Жамхарян Г. Г. Развитие интернет-торговли в эпоху цифровизации // Актуальные исследования. 2020. №10 (13). Ч. II. С. 79-83.

raqamli savdoning jadal o'sishi katta ahamiyat ega. Xalqaro savdo uchun raqamli transformatsiyaning asosiy natijasi bo'lib yangi raqamli texnologiyalar ("Buyumlar interneti", sun'iy intellekt, blokcheyn va Big Data) asosida yangi bozorlar, mahsulotlar va biznes modellarini yaratish hisoblanadi. Biroq, raqamlashtirish sharoitida tovarlar va xizmatlar o'rtasidagi tobora xiralashgan chegaralarni belgilashda ma'lum bir qiyinchiliklar mavjud.

Tadqiqotimizning ushbu qismida asosiy zamonaviy sharoitlarda xalqaro raqamli savdoni rivojlantirish jihatlari analiz qilingan va tizimlashtirilgan. Raqamli globallashuv sharoitida raqamli transformatsiyaning xalqaro almashinuvga ta'siri baholanadi. Ya'ni, iqtisodiy globallashuvning yangi bosqichida raqamli savdoning rivojlanishi an'anaviy almashinuvni sekinlashtirishga muqobil bo'lib kuzatilmoqda¹.

Mamlakatimizning tashqi savdo bo'yicha ko'rsatkichlariga nazar soladigan bo'lsak, quyidagi diagramma orqali ko'rsak bo'ladi:



Tashqi savdo/ Ташқи савдо/ Внешняя торговля/ Foreign trade²
(mln.AQSH.doll./ млн.АҚШ долл./ млн.долл.США/million US dollar)

¹ Цифровая экономика и искусственный интеллект: новые вызовы современной мировой экономики: монография / под ред. К.В. Екимовой, С.А. Лукьянова, Е.Н. Смирнова. – М.: Издательский дом ГУУ, 2019. С. 74.

² <https://stat.uz/uz/>

Yuqoridagi diagramma orqali xulosa qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizning 22 yil mobaynida tashqi savdo ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda o‘shish yoki kamayish tendensiyasini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, mamlakatimizning tovarlar va xizmatlar eksporti 2000-yilda 3264,7 mln AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 6 baravar (19293,7 mln AQSh dollar)ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin, xizmatlarni eksport qilish bo‘yicha ko‘rsatkich 1772,5 mln AQSh dollar bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda esa 4 baravar o‘sgan (4017,8 mln AQSh dollar). Biroq, paxta va qurilish eksportimiz esa anchagina pasayganini ko‘rishimiz mumkin.

Yevropa Ittifoqining xizmatlar tashqi savdosi pandemiya inqirozidan yanada qattiqroq zarar ko‘rdi. Chunki, 2020-yilda xizmatlar tashqi savdosi 364 milliard yevroga yoki 17,9 foizga kamaydi. 2011-yildan 2019-yilgacha xizmatlar eksporti va importi ijobiy tendensiyaga ega edi: xizmatlar eksporti 639 milliard yevrodan 1055 milliard yevroga, xizmatlar importi 551 milliard yevrodan 982 milliard yevrogacha bir yarim baravarga oshdi. Shuningdek, xizmatlar tashqi savdosi tovarlar savdosiga qaraganda tezroq o‘ydi: 2010-2019 yillarda xizmatlar savdosining o‘rtacha o‘shish sur‘ati 7 foizni, tovar ayirboshlash 2,3 foizni tashkil etdi.

Rivojlangan sanoat sektori Yevropa iqtisodiyotining dvigateli bo‘lib qolayotganini hisobga olsak, bu tendensiya xizmatlar bozorining Yevropa Ittifoqi rivojlanishidagi rolining o‘shib borayotganini ta’kidlaydi¹.

Jadval².

Yillar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Ko‘rsatkichlar										
Tovarlar										
Eksport	1624	1771	1780	1797	1876	1867	1994	2060	2132	1932
Import	1666	1702	1631	1625	1648	1602	1772	1912	1940	1714
Tashqi savdo aylanmasi	3291	3473	3411	3422	3524	3469	3766	3972	4072	3646
Balans	-42	68	149	171	228	264	222	148	192	217
Xizmatlar										
Eksport	639	698	693	747	845	854	931	988	1055	867
Import	551	595	570	636	770	780	821	856	982	807
Tashqi savdo aylanmasi	1190	1293	1263	1383	1615	1635	1752	1844	2037	1674
Balans	87	103	122	111	75	74	110	131	73	60

Yevropa Ittifoqining tovar va xizmatlari tashqi savdosi dinamikasi, milliard yevro

¹ Ромашкина В.А. Внешняя торговля Европейского Союза: тенденции развития в эпоху цифровизации// электронный научный журнал

² Muallif tomonidan qilingan.

2010-2020-yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari asosan sanoat mahsulotlari eksport qilindi, ularning ulushi umumiy eksportning 80% dan ortig'ini tashkil etdi. Yevropa Ittifoqi tovarlari eksporti tarkibida 2020-yilda 39 foiz mashina va transport vositalari, 22 foiz boshqa sanoat tovarlari, 21 foiz kimyoviy mahsulotlar yetakchilik qilmoqda. Evropa Ittifoqi tovarlari importi tarkibida sanoat tovarlari ham ustunlik qiladi, ularning umumiy importdagi ulushi 2010-2020-yillarda 63% dan 74% gacha o'sdi: mashinalar va transport vositalari - 2020 yilda 34%, boshqa sanoat tovarlari - 26%, kimyoviy moddalar - 14%. Energiya resurslarining importdagi ulushi neft, quvur gazi va ko'mir narxlarining pasayishi hisobiga xuddi shu davrda mos ravishda 25 foizdan 13 foizga sezilarli darajada kamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son.
2. Жамхарян Г. Г. Развитие интернет-торговли в эпоху цифровизации // Актуальные исследования. 2020. №10 (13). Ч.II. С. 79-83.
3. Цифровая экономика и искусственный интеллект: новые вызовы современной мировой экономики: монография / под ред. К.В. Екимовой, С.А. Лукьянова, Е.Н. Смирнова. – М.: Издательский дом ГУУ, 2019. Ст.74.
4. Ромашкина В.А. Внешняя торговля Европейского Союза: тенденции развития в эпоху цифровизации// электронный научный журнал.
5. UNCTAD (2019). World Investment Report 2019: Special Economic Zones.. New York and Geneva: United Nations. – p. 18.

Internet saytlari:

- <https://lex.uz/> - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari sayti;
<https://stat.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi;
www.gov.uz - Q'zbekiston Respublikasi hukumati portali;